1. Quyidagilardan NOTO'G'RI ma'lumotlarni aniqlang.
(Asos: "O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risida" gi qonuni. 05. 03. 2025 holatiga ko'ra)
1) O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan bayram kunlarida soat 6 da ko'tariladi va soat 22:00 da tushirib qo'yiladi;
2) O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i doimiy ravishda sudlarning majlislar zallarida ko'tariladi;
3) Hurmatni ta'minlaga holda Davlat bayrog'ini stollarga, o'rindiqlarga, stullarga to'shashga yoki uning tasvirini tushirishga va undan qoplama sifatida foydalanishga yo'l qo'yiladi;
4) O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini tayyorlash, saqlash va yo'q qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.
*A) 1, 3* *B) 2, 3*
*C) 2, 4* *D) 1, 4*

2. Quyidagilardan yot aralashgan qarindoshlarni aniqlang.
*A. aka-ukalar*
*B. turli ota yoki onadan tug'ilgan o`gay aka-ukalar va opa singillar*
*C. ota-bola*
*D. chevara-dubora*

3. Yakuniy hukmni aniqlang. (TO'G'RI /NOTO'G'RI)
(Asos: "Vazirlar Mahkamasi to'g'risida" gi qonun 7, 8, 20, 22-moddalari. 05. 03. 2025 holatiga ko'ra)
1) Respublika ijro etuvchi organlari rahbarlarining o'rinbosarlari ushbu organlar rahbarlari tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi
2) Bosh vazirning lavozimidan ozod etilishi bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Hokimiyat organlarining iste'foga chiqishiga sabab bo'ladi
3) Vazirlar Mahkamasi a'zoligiga nomzod mas'ul qo'mita, siyosiy partiyalar fraksiyalari tomonidan dastlabki tarzda ko'rib chiqilganidan keyin



MUALLIF: DIYORBEK OTAJONOV TEL: (91) 061-48-58

Qonunchilik palatasining majlisida koʻrib chiqiladi va ma'qullanadi.
4) Bosh vazir O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish to'g'risidagi takliflar kiritishga haqli
*A) 1 noto'g'ri, 2 to'g'ri, 3 noto'g'ri, 4 to'g'ri*
*B) 1 to'g'ri, 2 noto'g'ri, 3 to'g'ri, 4 noto'g'ri*
*C) 1 to'g'ri, 2 noto'g'ri, 3 noto'g'ri, 4 to'g'ri*
*D) 1 noto'g'ri, 2 noto'g'ri, 3 to'g'ri, 4 noto'g'ri*

4. Quyidagilardan qaysi biri Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokim vakolatiga kirmaydi
*A) Mahalliy byujetni shakallantirish va ijro qilish*
*B)  hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish*
*C) tegishli mahalliy byudjetlarni koʻrib chiqish va qabul qilish, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish*
*D) Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarini, Oliy Majlis palatalarining qarorlarini, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari hamda farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining, yuqori turuvchi hokimlarning va tegishli xalq deputatlari Kengashlarining qarorlarini bajarish*

5. Quyidagilardan qaysi birida ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan taqdirida bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi fuqarolikni olayotgan otaning yoki onasining **iltimosnomasiga** ko'ra amalga oshiriladi?
(Asos: "O'zbekiston fuqaroligi to'g'risida"gi qonuni 34-modda. 05. 03. 2025 holatiga ko'ra)
*1) Agar  bolaning ota-onasidan biri Oʻzbekiston Respublikasining fuqaroligini olayotgan boʻlsa, boshqasi esa chet davlat fuqarosi boʻlib qolaversa;*
*2) Agar bolaning  ota-onasidan biri Oʻzbekiston*

*Respublikasining fuqaroligini olayotgan bo'lsa, boshqasi esa fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lib qolaversa, bola O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashayotgan taqdirda;*
*3) Agar bolaning ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olayotgan bo'lsa, boshqasi esa O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet davlat fuqarosi bo'lib qolaversa, bola o'n to'rt yoshga to'lmagan, O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan va doimiy yashayotgan bo'lsa;*
*4) Agar bolaning ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olayotgan bo'lsa, boshqasi esa fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lib qolaversa, bola O'zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan bo'lsa*

A) 1, 2 B) 1, 3
C) 2, 3 D) 1, 4

6. Davlat moliyaviy munosabatlar va faoliyatini huquqiy tartibga solishning asoslari Konstitutsiyamizning qaysi bobida mustahkamlangan?

*A) XXII bob*
*B) XV bob*
*C) XXV bob*
*D) XXVI bob*

7. Quyidagilardan yakuniy hukmni aniqlang. (TO'G'RI / NOTO'G'RI)
1) Federativ davlat bir necha davlatlarning birlashuvidan hosil bo'ladi. Ularning subyektlari shtat, o'lka, Respublika, amirlik deb atalishi mumkin
2) Unitar davlatda butun bir mamlakat miqyosida umumiy tizimga ega bo'lgan qonunchilik, ijroiya va sud idoralari bo'ladi
3) Davlatlar u yoki bu maqsadni ko'zlab, o'z suvereniteti va mustaqilligini saqlagan holda birlashishlari ham mumkin. U holda bunday ittifoq konfederatsiya deyiladi
4) federatsiya oliy qonun chiqaruvchi idorasi odatda ikki palatali bo'ladi. Bunda quyi palata federatsiya a'zolarining manfaatlarini ifoda etadi

*A) 1 noto'g'ri, 2 to'g'ri, 3 to'g'ri, 4 to'g'ri*
*B) 1 to'g'ri, 2 to'g'ri, 3 to'g'ri, 4 noto'g'ri*
*C) 1 to'g'ri, 2 noto'g'ri, 3 to'g'ri, 4 to'g'ri*
*D) 1 to'g'ri, 2 to'g'ri, 3 to'g'ri, 4 noto'g'ri*

8. **Noto'gri ma'lumotni aniqlang.**
O'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar quyidagilarni mustaqil amalga oshirishga haqlidirlar:
(Asos: Fuqarolik kodeksi 29-modda. 05.03.2025-yil holatiga ko'ra)
*1) qonunga muvofiq kredit muassalariga omonatlar qo'yish va ularni tasarruf etish*
*2) mayda maishiy bitimlar tuzish*
*3) qonuniy vakil bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag'larni tasarruf etish borasidagi bitimlar*
*4) mualliflik huquqini amalga oshirish*
*A) 1, 3* *B) 2, 3*
*C) 2, 4* *D) 1, 4*

9. Quyidagi ma'lumolarni bir-biriga to'g'ri moslashtiring.
1) Neustoyka
2) Garov
3) Kafillik
*a) shartnoma bo'yicha bir shaxs boshqa shaxs o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishu uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi*
*b) Qonunchilik yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi*
*c) Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi*
*A) 1a, 2b, 3c*
*B) 1c, 2b, 3a*
*C) 1b, 2c, 3a*
*D) 1b, 2a, 3c*

10. Quyidagilardan sana va unga bog'liq hodisa to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.

| № | Sanalar | Hodisalar |
|---|---|---|
| 1. | 2016- yil | O’zbekiston Gellap (Gallup) Xalqaro tadqiqot markazining xavfsizlik bo‘yicha 142 ta davlat ichida 5- o’rnini egalladi. |
| 2. | 2006-yil | Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qabul qilindi. |
| 3. | 1998-yil 1-sentyabr | Oila kodeksi kuchga kirgan. |
| 4. | 1999-yilda | Terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro qo‘mita BMT tarkibida faoliyatini boshladi. |

*A) 1, 3*　　*B) 2, 4*
*C) 2, 3*　　*D) 1, 4*

11. O‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga quyidagi asosiy jazolar qo‘llanilishi mumkin: (Asos: O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 81-modda 01. 02. 2025 holatiga ko’ra)
1) yetkazilgan ziyonni bartaraf etish majburiyatini yuklash
2) jarima
3) majburiy jamoat ishlari
4) ozodlikdan cheklash
5) axloq tuzatish ishlari
6) ozodlikdan mahrum qilish
*A) 1, 2, 4, 5*
*B) 1, 2, 6*
*C) 2, 3, 4, 5, 6*
*D) 2, 4, 5, 6*

12. Quyidaglardan O’zbekiston Respublikasi sud tizimi NOTO’G’RI berilgan qatorni aniqlang.
(Asos: Sudlar to’g’risidagi qonun 2-modda. 05. 03. 32025 holatiga ko’ra)
*A) tumanlararo iqtisodiy sudlar*
*B) Toshkent shahar ma’muriy sudi*
*C) Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlari*
*D) fuqarolik ishlari bo’yicha tuman, shahar sudlari*

13. Saylov tizimining demokratik prinsiplari quyidagilardan qaysi


MUALLIF: DIYORBEK OTAJONOV　　TEL: (91) 061-48-58

hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan?
*A) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Ozbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida" gi Qonuni bilan*
*B) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida" gi Qonuni bilan*
*C) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Saylov kodeksi bilan*
*D) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi to'g'risida" gi Qonuni bilan*

14. "Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo`l qo`ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi". Ushbu gaplarning muallifi kim?
*A. Abdulla Qodiriy*
*B. Alisher Navoiy*
*C. Behbudiy*
*D. Abdurauf Fitrat*

15. Quyidagilarni bir-biriga to'g'ri moslashtiring.
1) Shaxsiy huquqlar
2) Madaniy huquqlar
3) Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar
4) Siyosiy huquqlar

*a) uy- joyga ega bo'lish huquqi*
*b) malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi*
*c) ijodiy faoliyat erkinligi*
*d) kasaba uyushmalariga uyushish huquqi*
*e) vijdon erkinligi*
*f) erkin mehnat qilish huquqi*
*g) bir joydan ikkinchi joyga ko'chish huquqi*
*h) davlat organlariga murojaat qilish huquqi*

A) 1a, e; 2b, c; 3f, h; 4d, g
B) 1e, g; 2c; 3a, b, f; 4d, h
C) 1b, d; 2a, e; 3f, c; 4g, h
D) 1a, e; 2c, h; 3d, g; 4b, f

16. Bir shaxsning boshqa shaxsga tovar yetkazib berish, biror-bir xizmat ko'rsatish va boshqa uchun shartnoma tuzish istagi va shartlari haqida yozma yoki og'zaki xabarnomasi deb nimaga aytiladi?
*A) Bitim*

*B) Shartnoma*
*C) oferta*
*D) Akseptlash*

17. To'g'ri ma'lumotni aniqlang.
*A) Oliy Majlisning birinchi majlislarida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi raislik qiladi*
*B) O'zbekiston Respublikasi davlat qarzini belgilash Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolatlari sirasiga kiradi*
*C) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati o'zini o'zi tarqatib yuborish to'g'risida deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qilishi mumkin*
*D) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Prezidentning taqdimiga binoan amnitsiya to'g'risidagi hujjatni qabul qiladi*

18. Quyidagilardan qonunchilik jarayonining III bosqichiga kiradiganlarini aniqlang.

1) Qonunchilik palatasi tomonidan qonun qabul qilinishi va uning Senatga yuborilishi

2) Qonunning Senatga tomonidan ko'rib chiqlishi va uning Prezidentga imzolash uchun yuborilishi

3) Prezidentga imzolashiga yuborilishi va qonunning matbuotda e'lon qilinishi

4) Qonun Senat tomonidan rad etilgan yoki Prezident tomonidan qaytarilgan hollarda qonun bir oy ichida qayta ko'rib chiqilishi

*A) 1, 2* *B) 2,3*
*C) 1,4* *D) 2,4*

*19. Er-xotinlik huquq va majburiyatlari qaysi vaqtdan boshlab vujudga keladi? (Asos: O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 18-modda. 05. 03. 2025 holatiga ko'ra)*
A) nikoh o'qilgan vaqtdan boshlab
B) nikohlanuvchi shaxslar ariza vaqtdan kundan e'tiboran
C) nikoh guvohnomasi imzolanganidan so'ng
D) nikoh FYDYO da ro'yxatga olingan paytdan boshlab

20. Quyidaglardan XATO berilgan ma'lumotlarni aniqlang.
(Asos: "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi qonun 2-modda. 05. 03. 2025 holatiga ko'ra)
*1) Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi;*
*2) Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq hokim etib tayinlanishi mumkin emas;*
*3) Viloyat va Toshkent shahar hokimi lavozimiga nomzod tegishli xalq deputatlari Kengashida uning nomzodi ko'rib chiqilayotganda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturini taqdim etadi;*
*4) Tuman shaharlarning hokimlari tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda viloyat, Toshkent shahar hokimi tomonidan taqdiqlanadi;*
A) 1, 3 B) 2, 4
C) 1, 4 D) 2, 3

21. Quyidagilarni bir-biriga to`g'ri moslashtiring.

| Mamlakat nomi | Tashqi muhitga chiqarilgan $CO_2$ ning miqdori |
|---|---|
| 1. Fransiya | a) 31% |
| 2. Germaniya | b) 5,4% |
| 3. AQSH | c) 7% |
| 4. Xitoy | d) 3% |



MUALLIF: DIYORBEK OTAJONOV TEL: (91) 061-48-58

*A) 1a,2c,3b,4d* *B) 1d,2b,3a,4c*
*C) 1b,2d,3a,4c* *D) 1c,2b,3a,4d*

22. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi saylanish tartibi to'g'ri ko'rsatiIgan javobni belgilang.
*A) O'zbekiston Respubiikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan O'zbekiston Respubiikasi Sudyalar oliy kengashi tavsiya etgan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog' iston Respublikasining vakilini qo'shgan holda*
*B) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respubiikasi Oliy Majlisi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tavsiya etgan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilini qo'shgan holda*
*C) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tavsiya etgan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilini qo'shgan holda*
*D) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respubikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tavsiya etgan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilini qo'shgan holda*

23. Qaysi jinoiy jazo faqat asosiy jazo sifatida emas, balki qo'shimcha jazo tariqasida ham qo'llanilishi mumkin? (Asos: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 43-modda. 05. 03. 2025 holatiga ko'ra)
*A) ozodlikdan mahrum qilish*
*B) harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish*

*C) xizmat bo'yicha cheklash*
*D) muayyan huquqdan mahrum qilish*

24 


Ushbu belgi haqida to`g`ri ma`lumotni aniqlang
A) Chet davlatlar diplomatik *vakolatxonalari, elchixonalar rahbarlarining transportlariga beriladigan davlat raqamlari (namuna).*
*B) BMT va uning tuzilmalarining O'zbekistondagi vakolatxonasi xodimlariga tegishli transport vositalariga beriladigan davlat raqamlari (namuna)*
*C) Xorijiy davlatlar elchixonalari, konsullik idoralari xodimlarining transport vositalariga beriladigan davlat raqamlari (namuna).*
*D) chet davlat elchixonalari rahbarlari o'rinbosarlarining transport vositalarga beriladigan davlat raqamlari (namuna)*

25. Qoraqalpog`iston Respublikasinmg Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
*A) 1990-yil 14-dekabr*
*B) 1992-yil 14-dekabr*
*C) 1993-yil 9-aprel*
*D) 1992-yil 8-dekabr*

26. Jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslarga kiradi?

*1. gumon qilinuvchi*
*2. fuqaroviy da'vogarning vakillari*
*3. prokuror*
*4. ekspert*
*5. jabrlanuvchi*
*6. sudya*
A) 1,2,3,4,6
B) 1,2,4,5
C) 1,2,5
D) 1,2,3,4,6

27. Quyida berilgan berilgan tushunchalarni tegishliligiga qarab bir-biriga to'g'ri moslashtiring.
(Asos: "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi qonun 3-modda. 05. 03. 2025 holatiga ko'ra)
*1) Prozelitizm*
*2) Diniy ta'lim muassasi*
*3) Missionerlik*
*4) Diniy tashkilot*
a) aniq maqsadga qaratilgan mafkuraviy ta'sir o'tkazish

orqali shaxsni (bir guruh shaxslarni) o‘z diniga kiritish maqsadida unga (ularga) diniy qarashlarni majburan singdirishga va diniy ta’limotni tarqatishga doir faoliyat;

b) fuqarolarning belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, birgalikda dinga e’tiqod qilish, ibodat qilish, diniy rasm-rusumlar va marosimlarni bajarish maqsadida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z ishtirokchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan ko‘ngilli birlashmasi (mahalliy diniy tashkilot, diniy ta’lim muassasasi va diniy tashkilotlarning O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha markaziy boshqaruv organi);

c) muayyan konfessiyaga mansub bo‘lgan, diniy tashkilotlarning professional xizmatchilarini va ular uchun zarur bo‘lgan diniy xodimlarni tayyorlash uchun diniy tashkilotlarning O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha markaziy boshqaruv organi tomonidan tashkil etilgan muassasa;

d) missionerlik faoliyatining bir konfessiyaga e’tiqod qiluvchilarni boshqa konfessiyalarga o‘tkazishga qaratilgan shakli.

*A) 1d, 2c, 3a, 4b*
*B) 1a, 2c, 3d, 4b*
*C) 1a, 2b, 3d, 4c*
*D) 1d, 2b, 3a, 4c*

*28. “Sudyalar hamjamiyatining mustaqil organi bo’lib, u sudyalar korpusining shakllanishini ta’minlaydi”.*
Gap qaysi organ haqida ketmoqda?
A) Oliy Sud
B) Konstitutsiyaviy sud
C) Oliy sudning rayosati
D) Sudyalar oliy kengash

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qachondan o‘z lavozimiga kirishgan hisoblanadi?
*A) saylov natijalari e’lon qilingan kundan boshlab*
*B) saylov natijalari e’lon qilingandan o‘n kun o‘tib*
*C) saylov natijalari e’lon qilingan uch kun o‘tib*

*D) qasamyod qabul qilgan paytdan boshlab*

30. Sitseron Mark Tulliy ga tegishli bo'lgan gaplarni aniqlang.

| | |
|---|---|
| 1. | Ozod bo'lish uchun qonunlarning quliga aylanishga to'g'ri keladi. |
| 2. | Agar sud hokimiyati ijro hokimiyati bilan birlashsa, u holda sud hakami sitamgarga aylanishiga imkoniyat tug'iladi. |
| 3. | Inson tarbiyasining darajasi boshqaning huquqini hurmat qilish bilan belgilanadi. |
| 4. | Hukumat – so'zlovchi qonun, qonun esa gung hukumatdir. |

*A) 1, 2* *B) 2, 3*
*C) 1, 3* *D) 1, 4*

HUQUQSHUNOSLIKDAN ONLAYN DARSLARGA QO'SHILISH UCHUN MUROJAAT QILING.

TEL: (91) 061-48-58

TG: @ustoz_diyorbek_otajonov